



QAMBAR BIRINCHI
QO'NG'IROQ

O'TAYEV

UO‘K: 821.512.133-1

KBK: 84(50‘)6

Q - 19

Ota, Qambar

Birinchi qo‘ng‘iroq: she‘rlar. Qambar Ota (Otayev) / So‘zboshi muallifi Tursunboy Adashboyev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 128 b.

ISBN 978-9943-27-974-2

E‘tiboringizga havola qilinayotgan she‘rlar nimasi bilan qadrli? Bu she‘rlarni qaysi jihatiga ko‘ra suyub, ardoqlab, boshqalarga ham ilinib o‘qiymiz? Dilimizga yoqqan satrlarni qo‘shiq qilib kuylaymiz. Bu she‘rlar aynan bolajonlarga atab yozilgani uchungina emas, unda o‘quvchisini ko‘ngli bilan hisoblashadigan, misralari orqali ularni erkalaydigan, shirin xayollarga yetaklaydigan, yaqinlarini e‘zozlashga undaydigan sirli kuch borki, aynan shu jihatiga ko‘ra adib she‘rlariga oshno bo‘lgan yosh kitobxonlarimiz uni “Qambar bobo” deya suyub, mehr bilan tilga oladilar.

Qadrli bolajonlar! Ushbu to‘plamga kiritilgan she‘rlar orqali Qambar bobongiz sizni tizzalariga olib erkalaydilar, bag‘riga bosadilar...

UO‘K: 821.512.133-1

KBK: 84(50‘)6

So‘zboshi muallifi

Tursunboy Adashboyev

ISBN 978-9943-27-974-2

© Qambar Ota (Otayev), “Birinchi qo‘ng‘iroq”. “Yangi asr avlodi”, 2017-yil.

ADABIYOTNING JON TOLMAS IJODKORI

Men Qambar bilan 1960-yilning 15-avgustida yosh ijodkorlar seminarida tanishganman. Esimda bor, o'shanda Samarqanddan to'rt ijodkor – To'ra Sulaymon, Sur'at Oripov, Hamida Karimova va Qambar O'tayevlar taniqli shoir Dushan Fayziy rahbarligida kelishgan edi. Biz yoshlar tezda til topishib, inoqlashib ketdik. Qambar o'shanda Samarqand Davlat universiteti birinchi kurs talabasi, qoramag'izdan kelgan, o'rta bo'yli, kamtar, kamgap bir yigit edi. Tortinchoqligi sabab, hadeganda davraga qo'shilib ketolmas, biroq suhbat she'r haqida, adabiyot borasida ketarkan, u tetiklashar, o'zini haq deb bilgan masalada, qizishib, hayajonlanib bahsga kirishib ketardi...

Qambar Ota (O'tayev) 1941-yili Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. Lekin bolaligi Qashqadaryoning Koson va Chiroqchi dashtlarida, Urgutning Bahrin qishlog'ida, Pastdarg'om tumani dalalarida kechadi. Bu nimani anglatadi: garchi o'zi bu haqda shikoyat qilmagan bo'lsa-da, bolalik hayoti o'sha notanti zamon talotumlari orasida besaranjom kechadi. Halovat bilmaydi.

Qambarning birinchi she'ri Vatan haqida bo'lib, Kattaqo'rg'onidagi Miriy nomli maktabda o'qiyotganida tuman gazetasida bosiladi. Keyin "Yong'oq" sarlavhali masali ham shu gazetada chiqadi. Shundan keyin Samarqand viloyati gazetasida, "G'uncha" jurnalida ko'rina

boshlaydi. U to'liqsiz o'rta ma'lumot olgach, Samarqand suv xo'jaligi texnikumiga o'qishga kiradi, ayni chog'da tirishqoq yigit 69-kechki maktabga ham qatnab, yetuklik attestati oladi. Xuddi shu yilning o'zida Alisher Navoiy nomli Samarqand Davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kiradi. Bu davr ichida uning ancha-muncha she'rlari turli nashrlarda chop etilib, tanilib qolgani sabab, hali so'zim avvalida aytganim, Respublika yosh ijodkorlar seminariga qatnashishga loyiq ko'riladi.

Qambar og'ayninmning ijodiy merosiga qayta nazar solarkanman, har holda u adabiyotimizda o'ziga yaraSha iz qoldirganiga guvoh bo'ldim va yengil tortdim. Qambar keyinchalik adabiy muhitga intilib, Toshkentga ko'chib keldi. Ketma-ket "Vatan tuprog'i", "Bizning kosmos" nomli kitoblarini chop ettirib, xususan, bolalarga bag'ishlangan she'rlari, ertak-dostonlari bilan o'z iqtidorini namoyish eta bildi. Asarlaridagi soddalik, oddiylik, samimiylik bilan kichkintoylarning sevimli shoiriga aylandi. Qambar Ota she'rlarining o'ziga xos tomoni – ular o'z ohangi bilan yaratilganday edi. Shu sababdan bo'lsa kerak, bir qancha bastakorlar (masalan, Shermat Yormatov) e'tiborini tortdi va ko'plab she'rlari qo'shiqqa aylanib, radio va televideniye "oltin xazinasi"dan o'rin oldi.

Qambar o'sha dastlabki ustozlar sinovi – Respublika seminarida o'ziga bildirilgan ishonchni oqladi. "Yoshlik sururi", "Chinor ansambli", "Adashboy", "Bizning kosmos", "Tinim bilmas Shamolvoy", "Chavandoz orzusi", "Shirin so'z", "G'ildirak", "Tabiatga rahmat", "Sizday yashagim kelar", "Bolalarning ko'zlari", "Toshpolvon va ishpolvon haqida ertak", "Guldasta", "Alifbe bayrami", "Quyosh bilan gaplashdim", "Kitobsevar Oftoboy", "Tomda uxlagan bola", "Quyosh bola, oy bola" kabi bolalarga bag'ishlangan, "Vatan tuprog'i", "Diydor", "Izlar", "Tinmay izlan, yuragim", "Dil ko'rki" kabi kattalarbop she'riy majmualar e'lon qildi. Tarjimon sifatida belorus, ukrain, latish, eston, rus, shuningdek, jahon

bolalar shoirlari ijodidan saralab, o'zbek tiliga o'girdi. Ayni chog'da o'zining ham ko'plab she'rlari rus, belorus, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tojik, uyg'ur, turk tillariga tarjima qilindi.

Qambar Otaning ellikka yaqin she'ri boshlang'ich sinf darsliklari, darsdan tashqari o'qish kitoblari, maktab va bog'chalar uchun uslubiy qo'llanmalar, tabiat darsliklariga kiritilgan. Hali aytganimday, yuzdan ortiq she'rlariga kuylar bastalandi. Shundan ham ko'rinib turibdiki, Qambar Ota adabiyotimizning jon tolmas ijodkorlari sifatida kitobxonlarimiz qalbidan mustahkam o'rin egallagan.

Tursunboy ADASHBOYEV

BIR ODIL PODSHO

Asta-sekin tun cho‘kar,
Tanlarga orom yoqar.
To‘shakda tinglayman jim,
Ertak aytadi buvim.
“Bir odil podsho bo‘lgan,
Bir sofdil podsho bo‘lgan.
El-yurtning baxti kulgan,
Ishonchi, ahdi kulgan...”
Qalbimni sehr chulg‘ar,
Insoniy mehr chulg‘ar.
Ezgu xayol suraman,
Uxlayman – tush ko‘raman.
Charaqlab baxtim kular,
Qudratim, shaxtim kular.
Amrimdan olam yashnar,
Maqsadim olg‘a boshlar.
Erta tongda uyg‘onib,
Ezgu tushdan quvonib,
Hammaga mehrim tarab,
Yuraman bag‘rim yayrab.
Tun... kelar yana galim,
Orom olish mahalim.
To‘shakda tinglayman jim,
Ertak aytadi buvim.
“Omon bo‘lgur iloyim,
Uxla, mening podshoyim.
Bir yurtparvar shoh bo‘lgan,
El-xalqning baxti kulgan”.

DIL GAVHARI - JONAJON...

Bolajon,
Ey bolajon, boldirsan.
Tolesan, iqboldirsan.
Beg'uborsan, pokdirsan,
Yashnab-kulgan taqdirsan.

Quyosh sevar havasda,
Oy shu'lası payvasta.
Osmon to'ymay termular,
Yer aylanib-o'rgilar.

Hayot uzra yagona,
Gunohlardan begona.
Senga o'xshab xotirjam,
Ko'rmaylik, deb zarra g'am.

Ko'plar quchib siylashar,
O'pib tavof aylashar.
Dil gavhari – jonajon,
Ey bolajon, bolajon!



OFTOB NURIN ICHAMAN

Qarang, do'stlar, jo'ralar,
Quyosh ko'kdan mo'ralar.
Bag'ridan sehr kelar,
Yoqimli mehr kelar.
Derazani ochaman,
Oftob nurin ichaman.
Jon-tanimga zo'r yoqar,
Hayotbaxsh huzur yoqar.
Quvvat olib ziyodan,
Baxtim kular ziyoda.
Quyoshdan durdonaman,
Bug'doy rangli bolaman.

AKA-UKA QO'SHIG'I

Ahil aka-ukamiz,
Oilada erkamiz.
Totli danak mag'izimiz,
Shirinlikda mayizimiz.

Hayotimiz ziyosi,
Uyimiz oy-quyoshi –
Suyuk ota-onamiz,
Gaplarini olamiz.

Maktab nurli xazina,
Bilim baxtga zo'r zina.
O'qiyimiz, ter to'kamiz,
Ilm ma'nosin chaqamiz.

O'tkirlashar zehnimiz,
Dilda qaynar mehrimiz.
Sevib o'g'il-qizlarni,
Qadrlaymiz do'stlarni.

ANHOR BO'YIDA

Nahripayning bo'yini
Jiyda qoplab yotardi.
Oy anhorda soch yuvib,
Oyday oq tong otardi.
Unday mayin tuproqda
Yolg'izgina so'qmoq yo'l,
Dillar yashnardi rosa.
Qushlar tinmay sayrardi,
Yuzlab tilda chug'urlar
Hushimizni rom qilib,
Qo'yar edi o'g'irlab.
Jiyda hidi barq urib,
Dimoqlarga yoqardi.
Anhor dildan sharaf lab,
Qo'shiq kuylab oqardi.
Yillar o'tdi, sen haqda
Ko'pdir ko'rgan tushlarim.
Yurtning tabiatida
Quv nab yuring, qushlarim.
Nahripayning bo'yida
Omon bormisan, jiyda?
Xush bo'yingni unutmay,
Madh etayin har joyda.



QUSHLAR

Osmon uzra charx urib,
Joni-dili barq urib,
Qushlar, qushlar, qushlar-ey,
Ko'kda ko'ngil xushlar-ey.

Nur qo'ynida cho'milib,
Bulutlarga ko'milib,
Zavqi toshib yayraydi,
Qanot qoqib o'ynaydi.

Koinotni sezsa-da,
Yuksaklarga uchsa-da,
Der, bu baxtga o'tmaydi,
Yer gashtiga yetmaydi!

Qolmas ko'kda ovunib,
Zamin ko'ksin sog'inib,
Yurt ishqida suyinib,
Pastga tushar quyilib.

Inlarida to'sh qo'yib,
Orom olishar to'yib.
Vatan mehri baxt, deydi,
Rizq-nasiba taxt deydi.





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/2712> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/2712> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/2712>